



**Ilmiy amaliy
jurnal
№ 5 (7)
2026**

**YANGI
O'ZBEKISTON
IQTISODIYOTI**

“YANGI O‘ZBEKISTON IQTISODIYOTI” *jurnali* 5-son 2026 yil

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIIY TA’LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

**MIRZO ULUG‘BEK NOMIDAGI
O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI**

YANGI O‘ZBEKISTON IQTISODIYOTI

5

ISBN 978-9943-5256-3-4

Toshkent – 2026

MUNDARIJA

Minojiddinov A.A. Meva-sabzavot tarmog‘i korxonalarini boshqarishda tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlarni takomillashtirish yo‘llari	8
Mirzayev A.T., Dilnozaxon M. O‘zbekistonda turizm marketingi samaradorligini baholash va uni takomillashtirishning integratsiyalashgan mexanizmi.....	12
Shavkatov A.Sh. O‘zbekistonda kichik biznes rivojlanishining institutsional va makroiqtisodiy asoslari.....	16
Махаммаджанов М.М. Инновационная трансформация банковского сектора Узбекистана: общесистемные тенденции и финансовые результаты.....	20
Sativaldiyeva G.X. IFRS 16 “Ijara” xalqaro standartiga muvofiq ijara hisobidagi o‘zgarishlar.....	24
Ismailov X.M. Aloqa korxonalari moliyaviy barqarorligini ta‘minlash metodologiyasini takomillashtirish masalalari.....	28
Yusubov I.I. Mintaqada iqtisodiyotni barqarorlashtirishda raqamli xizmatlarning rivojlanishi.....	32
Saidaxmedov N.X. Paxta-to‘qimachilik klasterlari faoiyatini shakllanishi va rivojlanishining zamonaviy nazariyalari.....	35
Istamqulov D.Q., Danyarova F.B. Milliy iqtisodiyotga xorijiy investitsiyalarni jalb qilishni takomillashtirish yo‘llari.....	40
Aipova I.I. Resurs samaradorligini baholashning nazariy usullari va ko‘rsatkichlari.....	43
Mirzaraximova A.A. Tijorat banklari tomonidan aloqa sohasini moliyalashtirish samaradorligini oshirish yo‘llari.....	49
Xalmirzaev A.A. Yer va suv resurslaridan samarali foydalanishda hududiy ixtisoslashuvning ahamiyati va iqtisodiy samaradorligi.....	53
Sidikov Z.A. Sirdaryo viloyatida sanoatlashtirish jarayonining hududiy ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishga ta‘siri.....	59
Usmanova N.Y. Raqamli iqtisodiyotda menejment qarorlarini qabul qilishda innovatsion texnologiyalarning roli.....	63
Ergashev R.X., Rajabaliyeva I.A. Transport-logistika infratuzilmasini raqamli texnologiyalar asosida rivojlantirish va uning samaradorligini oshirish.....	67
Raximova D.S. Barqaror restoran amaliyotlari: oziq-ovqat chiqindilarini kamaytirish va qayta ishlashning innovatsion yondashuvlari.....	70
Narzullayeva X.A. Investitsiya muhiti jozibadorligini oshirishning xalqaro tajribalari.....	76
Muxitdinov Sh.Z. Kichik agrobiznes subyektlarida mahsulotlar eksportini rivojlantirishga ta‘sir etuvchi omillar.....	84
No‘monov O.O‘. Agrotadbirkorlik subyektlarining eksport salohiyatiga ta‘sir etuvchi makroiqtisodiy va mikroiqtisodiy omillarni kompleks baholash.....	88
Yeshimbetov U.X. O‘zbekistonda qishloq xo‘jaligini barqaror rivojlantirishda tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlarini takomillashtirish.....	92
Raximova K.N. Tadbirkorlik sharoitida yashil biznesni tashkil etish va rivojlantirishining o‘ziga xos xususiyatlari	97
Хошимов П.З., Тўрахожайев Х.Х. Ислоний банкларнинг ишлаш тамойиллари ва ислон молия тизимининг Ўзбекистон иқтисодиётига таъбиқи.....	100
Sattarov R.A. An integrated methodological framework for evaluating and forecasting interregional economic cooperation: an input-output approach (evidence from Uzbekistan).....	107
Farmanov J.Z. Mintaqada asalarichilik ekotizimining tamoyillari va ekologik-geografik xususiyatlarini takomillashtirish	111
Qurbonov A.B. Janubiy iqtisodiy rayonda qishloq xo‘jaligi orxonlarining tarkibiy o‘zgarishi va agrar kooperatsiyani rivojlantirish yo‘nalishlari.....	114
Тоштемуров Т.Т. Ўзбекистонда кичик тадбиркорлик субъектлари фаолиятини кенгайтиришда солиқ механизмларидан фойдаланиш масалалари.....	119
Arziyev M.A. O‘zbekiston iqtisodiyotini transformatsiyalash sharoitida oilaviy tadbirkorlikni rivjlantirishning ustuvor yo‘nalishlari.....	122
Maxkamova S.Sh. Ekologik innovatsiyalar orqali yerni oqilona boshqarishning tashkiliy va iqtisodiy mexanizmini takomillashtirish.....	127
Olimova N.X. Yashil moliyalashtirishning rivojlanish tendensiyalari hamda hozirgi amaliyoti: milliy kontekst	137
Zaylobitdinova H.X. Davlat oliy ta‘lim muassasalarining tijorat faoliyatini samarali boshqarish strategiyalari.....	141
Komilov A.I. Evolution of the catering industry in the context of digital technologies.....	145

“YANGI O‘ZBEKISTON IQTISODIYOTI” *jurnali* 5-son 2026 yil

Sotvoldiyev N.N. Mamlakatimizda yashil iqtisodiyotni rivojlantirishda mehnat bozoriga ta'sir etuvchi omillar.....	149
O'rinov A.A. Sanoat tarmoqlarining investitsion imkoniyatlarini barqarorlik indikatorlari asosida boshqarish mexanizmlari.....	154
Ahmadaliyeva R.A. O'zbekistonda xufyona iqtisodiyotga qarshi kurashish samaradorligi.....	158
Uzganbayeva D.T., Alimova Sh.F. The role of investment strategies in transforming small business entities into large corporate structures.....	162
Goziyev M.Sh., Abdufattoyeva M. Sun'iy intellekt asosida iqtisodiy qarorlar qabul qilish samaradorligini oshirish.....	167
Qobilov H., Uzganbayeva D.T. O'zbekiston iqtisodiyotida xususiy tadbirkorlikning ro'li: so'nggi yillardagi islohotlar sharoitida iqtisodiy o'sish va bandlikka qo'shayotgan hissi.....	170
Sotiboldiyeva R., Uzganbayeva D.T. O'zbekistonda xotin-qizlar tadbirkorligini rivojlantirishda moliyaviy qo'llab-quvvatlash mexanizmlarining ahamiyati.....	174
Маматкулов З.Ш. Хизмат кўрсатиш фаолиятининг шакллантириш ва бошқаришда хориж тажрибаларидан самарали фойдаланишнинг инновацион йўналишлари.....	179
Shamsiddinov P., Uzganbayeva D.T. Iqtisodiyotning raqamlashtirishning afzaliklari va uning oqibatlari.....	185
Qosimov A.S. Jizzax viloyati mahallalarining qayta nomlanishi va demografik jarayonlar va iqtisodiy samaradorlik ko'rsatkichlari.....	189
Qodirov A., Tulaganov E.J., Berdimurodov U.S. Inson kapitalini kapitalizatsiya qilish va samaradorligini oshirish.....	192
Saidkarimova M.I., Sobirov O.A. Sanoat korxonalarining raqobatbardoshligini oshirish yo'llari.....	199
Saidova M.J. Sanoat transformatsiyasi sharoitida kichik biznes va tadbirkorlikning o'rni (Andijon viloyati misolida)	203
Юсупов А.С., Пардаев Х.Ф. Динамическое управление международным портфелем акций: механизмы ребалансировки и преимущества глобальной диверсификации в условиях волатильности валютных рынков.....	206
Burxonov J.X., Soliyev I.I. Mehnat bozorini tartibga solishda innovatsion yondashuvlarning xorij tajribasi tahlili.....	213
Xaitbaev J.O. Mintaqa iqtisodiyotini barqarorligini ta'minlashda suv resurslaridan foydalanishning ko'p omilli ekonometrik modellari.....	217
Saidov U.S. Kichik tadbirkorlik subyektlarida ekologik innovatsiyalarni rag'batlantirishning moliyaviy yo'nalishlari.....	221
Nurmaxanmadov N.B. Iqtisodiyotning ekologiyaga ta'sir moyilligining oshib borishi muammosi.....	224
Xudayberdiyev K. Davlat xaridlarida elektron platformalar faoliyatini optimallashtirishda sun'iy intellektga asoslangan moderatsiya mexanizmlarining roli.....	230
Xolxo'jayev E.G'. Davlat xaridini tashkil etishda elektron savdolardan foydalanish samaradorligi hamda imkoniyatlari tahlili.	234
Rustamova F.A. Qishloq joylarda tadbirkorlik subyektlarining iqtisodiy samaradorligini baholash va uni oshirishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlari.....	238
Ikromov A. Iqtisodiy jarayonlarni ekonometrik modellashtirishda integro-differensial tenglamalarning o'rni va ularni tadqiq etish.....	241
Sarimsakov B.R., Usmonov J.Q. Xorijiy mamlakatlarda inson kapitalidan qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishida samarali foydalanish tajribalari.....	245
Maraimov I.R. O'zbekistonda kambag'allikni kamaytirish va aholi turmush farovonligini oshirish.....	251
Yusupov Sh.B. Xorazm viloyatida sanoat korxonalarining iqtisodiy samaradorligini baholash va oshirish yo'llari: 2020–2025 yillar tahlili va 2030 yilga prognoz.....	256
Chintemirova D.Sh. Hududlar kesimida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik faoliyatining rivojlanish tendensiyalari.....	260
Xusanova Z.R. Ayollar tadbirkorligini rivojlantirishning samaradorlik ko'rsatkichlari va unga ta'sir ko'rsatuvchi omillar.....	265
Tajiboyev S.O., Gulimboyev S.I. Moliyaviy siyosatning investitsiya muhitiga ta'siri.....	270
Tajiboyev S.O. G'aznachilikda to'lovlarni amalga oshirish.....	275
Xaydarov M., Baxtiyorov I. Innovatsion iqtisodiyot g'oyalari va ularni oliy ta'lim tizimi orqali qo'llashning nazariy asoslari.....	279
Ким Т.В., «Зарубежный опыт развития циркулярной экономики и её роль в формировании ресурсосберегающей модели экономического развития».....	286

“YANGI O‘ZBEKISTON IQTISODIYOTI” *jurnali* 5-son 2026 yil

Saydullayeva R.U. Analysis of financial efficiency and profitability in the green economy: the role of IAS and IFRS standards.....	292
Galatov A.A., Karimova G.A. O‘zbekistonda Islomiy moliyaviy xizmatlar ko‘rsatuvchi nobank tashkilotlar faoliyati va strategik boshqaruv tizimining tahlili.....	296
Tursunov F.U. Oliy ta‘lim sifati monitoringini takomillashtirish mexanizmlarini rivojlantirishning zamonaviy yondashuvlari... ..	300
Yakhshiboev R.E. Retrieval-augmented generative AI for smart learning content.....	303
Ergashev S.A. Sanoat korxonalarini barqaror rivojlantirish mexanizmlarini takomillashtirish: ilmiy-nazariy va amaliy asoslar.....	307
Абдуллаева Р.Ғ., Тажибаева Н.Ф. Ўзбекистон иқтисодиётида инвестицияларнинг устувор йўналишлари ва ривожланиш истиқболлари.....	311
Sayfullayev J. Why organizations struggle to implement green management practices: key barriers and practical solutions.....	316
Sirojiddinov K.I. Korxonaning raqobatbardoshligini baholash usullari.....	319
Ibraximov X.S. Mintaqalarda tadbirkorlik muhitini shakllantirishda kichik biznesni davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlashning o‘rni va mexanizmlari.....	324
Tajibayev K.Q. Farg‘ona vodiysida kichik biznes sub‘ektlari raqobatbardoshligini oshirishning metodologik asoslari.....	328
Abdulxakimov Z.T. Barqaror rivojlanish evolyusiyasi va tarkibiy qismlari masalalari.....	332
Pazilidinov M.M. Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirishda xorijiy mamlakatlarning raqamlashtirish tajribasi.....	337
Жураева М.З., Ахмедов Р.М. Экосистема применения системного подхода в менеджменте транспортной инфраструктуры.....	341
Ахмедов Р.М. Основные требования к разработке системного подхода в менеджменте дорожного хозяйства Республики Узбекистан.....	348
Mamasiddiqova F.X. Qishloq xo‘jaligida mahallalar ixtisosligi: nazariy asoslar, regional tahlil va rivojlantirish istiqbollari.....	353
To‘rayev A.A. Mehnat bozorini texnologik transformatsiyalash sharoitida ishchi kuchi raqobatbardoshligini oshirish mexanizmlari.	358
Солиев И.И. Концептуальные основы институциональной автономии вузов в условиях модернизации системы образования Узбекистана.....	362
Xasanov S.Q. Sanoat korxonalarini rivojlantirishda modernizatsiya va klaster yondashuvining o‘rni.....	365
Murodov A. Aholining real pul daromadlarini va xarid qobiliyatini oshirishning nazariy asoslari.....	369
Карабаев Р.З. Искусственный интеллект в цифровой экономике Узбекистана.....	374
Rasulova Sh.A. Bozor iqtisodiyotida monopoliyaning mohiyati, shakllari va uning O‘zbekiston iqtisodiyotiga ta‘siri.....	378
Salimov A.F., Rasulova Sh.A. Bozor muvozanati va unga ta‘sir ko‘rsatuvchi omillar.....	381
Sattarova G.X. O‘zbekiston logistika bozorida yuk tashish xavflarini sug‘urta orqali kamaytirishning iqtisodiy samaradorligi.....	385
Муродхўжаева Ф.М. Маҳаллий саноатни шакллантиришда кластер ёндашуви ва 2030 йилгача трансформациянинг прогноз параметрлари (Наманган вилояти мисолида).....	389
Yoqubjonov R.R. Kichik biznes mahsulotlari raqobatbardoshligini oshirishda innovatsion yondashuvlar.....	396
Nasritdinov B.X. Risklarni integral baholash kichik biznesda moslashuvchan boshqaruv tizimi asbobi sifatida	400
Abdurazzoqov H.A. O‘zbekistonda yashil iqtisodiyotga o‘tish jarayonining hozirgi holati va tendentsiyalari.....	406
Turgunov M.M., Soliyev I.I. Milliy innovatsion tizim samaradorligini oshirishning strategik yo‘nalishlari.....	411
Kuzimuratova D.M. O‘zbekiston Respublikasida tijorat banklarining investitsiya faoliyatini rivojlantirish va takomillashtirish.....	414
Soyibjonov I.S. Kichik biznes va tadbirkorlik subyektlarini yashil iqtisodiyot tamoyillari asosida rivojlantirish.....	419
Axmadjanov I.I. Shaharlar va shahar aglomeratsiyalari mintaqalar va mamlakatlar ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishining drayveri.....	423
Odinayev G‘.J. Nogironligi bo‘lgan aholi qatlamini strategik sohalarda band qilish loyihalari.....	427
Abduvahobov V.B. Jinoiy daromadlarni legallashtirishga qarshi kurashishning global standartlari va O‘zbekiston tajribasi: kompleks tahlil.....	430
Қўзиева Н.Н. Билвосита солиқларнинг шаклланиши ва ривожланиб бориши.....	435

izchil amalga oshirilishi O‘zbekiston iqtisodiyotining barqaror yuqori o‘shish sur‘atlariga erishishiga, aholining hayot darajasi yuksalishiga va “Yangi O‘zbekiston” strategiyasining asosiy maqsadlariga tezroq yetishishiga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Mirziyoyev Sh.M. Yangi O‘zbekiston strategiyasi. Toshkent, 2021
2. O‘zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo‘mitasi. Kichik tadbirkorlik subyektlarining asosiy ko‘rsatkichlari (2025-yil yanvar-sentyabr). Stat.uz.
3. Vahobov A.V. Kichik biznes va tadbirkorlik. Toshkent: Iqtisod-Moliya, 2022.
4. Yuldashev N.Q. Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik iqtisodiyoti. Toshkent, 2019.
5. De Soto E. Kapitalning siri. Toshkent, 2005.
6. Lex.uz (Prezident farmonlari va qarorlari, 2025).
7. World Bank va ADB hisobotlari (2025-2026).
8. Schumpeter J.A. Capitalism, Socialism and Democracy. New York: Harper, 1942.
9. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 28-dekabrdagi “2025-2030 yillarda O‘zbekistonda tadbirkorlikning rivojlantirish strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-11 farmoni. Toshkent, 2024.
10. Tadbirkorlik va innovatsiyalar qo‘mitasi. Kichik va o‘rta rivojlanish monitoringi. 2025-yil yakuniy hisoboti. Toshkent, 2026.

UDK: 338.242

**O‘ZBEKISTONDA XOTIN-QIZLAR TADBIRKORLIGINI RIVOJLANTIRISHDA
MOLIYAVIY QO‘LLAB-QUVVATLASH MEKANIZMLARINING AHAMIYATI**

**РОЛЬ МЕХАНИЗМОВ ФИНАНСОВОЙ ПОДДЕРЖКИ В РАЗВИТИИ ЖЕНСКОГО
ПРЕДПРИНИМАТЕЛЬСТВА В УЗБЕКИСТАНЕ**

**THE ROLE OF FINANCIAL SUPPORT MECHANISMS IN THE DEVELOPMENT OF
WOMEN’S ENTREPRENEURSHIP IN UZBEKISTAN**

Uzganbayeva Dilnoza Toxtasinovna

Farg‘ona davlat universiteti, “Iqtisodiyot” kafedrası o‘qituvchisi

Sotiboldiyeva Rokiyaxon 25.91 guruh talabasi

Annotatsiya

Ushbu maqolada zamonaviy O‘zbekiston iqtisodiyotida xotin-qizlar tadbirkorligini rivojlantirishning ustuvor yo‘nalishlari va ularni moliyaviy qo‘llab-quvvatlash tizimi tahlil qilinadi. Tadqiqot davomida ayollar biznesini rag‘batlantirishga qaratilgan imtiyozli kreditlash mexanizmlari, davlat subsidiyalari va xotin-qizlar bandligini ta‘minlash borasidagi tarkibiy islohotlar o‘rganilgan. Shuningdek, xotin-qizlar tadbirkorligining ijtimoiy barqarorlikni ta‘minlash hamda yalpi ichki mahsulot (YaIM) o‘shidagi strategik ahamiyati ilmiy jihatdan asoslab berilgan. Maqola yakunida sohaga investitsiyalarni jalb qilishni samarali tashkil etish bo‘yicha taklif va tavsiyalar ilgari surilgan.

Kalit so‘zlar: xotin-qizlar tadbirkorligi, moliyaviy mexanizmlar, imtiyozli kreditlar, subsidiya, ijtimoiy himoya, "Ayollar daftari", iqtisodiy o‘shish.

В данной статье анализируются приоритетные направления развития женского предпринимательства в современном Узбекистане и система его финансовой поддержки. В ходе исследования изучены механизмы льготного кредитования, государственные субсидии и структурные реформы, направленные на стимулирование женского бизнеса и обеспечение

занятости. Также научно обосновано стратегическое значение женского предпринимательства в обеспечении социальной стабильности и росте валового внутреннего продукта (ВВП). В завершение статьи выдвинуты предложения и рекомендации по эффективной организации привлечения инвестиций в данную сферу.

Ключевые слова: женское предпринимательство, финансовые механизмы, льготные кредиты, субсидии, социальная защита, «Женская тетрадь» (Аёллар дафтари), экономический рост.

This article analyzes the priority directions for developing women's entrepreneurship and the mechanisms of financial support in the modern economy of Uzbekistan. The study examines preferential lending systems, state subsidies, and structural reforms aimed at encouraging female-led businesses and ensuring employment. Furthermore, the strategic importance of women's entrepreneurship in maintaining social stability and contributing to Gross Domestic Product (GDP) growth is scientifically substantiated. The paper concludes with practical proposals and recommendations for the effective organization of investment attraction in this sector.

Keywords: women's entrepreneurship, financial mechanisms, preferential loans, subsidies, social protection, "Women's Register", economic growth.

Hozirgi kunda dunyo miqyosida xotin-qizlarning iqtisodiy faolligini oshirish, ularni tadbirkorlik faoliyatiga keng jalb etish hamda iqtisodiy mustaqilligini ta'minlash muhim ijtimoiy-iqtisodiy vazifalardan biri hisoblanadi. Xotin-qizlar tadbirkorligi jamiyatning barqaror rivojlanishida, yangi ish o'rinlarini yaratishda, aholi daromadlarini oshirishda hamda iqtisodiy o'sishni ta'minlashda muhim rol o'ynaydi. Shu sababli ko'plab davlatlarda ayollarni tadbirkorlik faoliyatiga jalb qilish va ularni har tomonlama qo'llab-quvvatlashga alohida e'tibor qaratilmoqda.

Bugungi kunda xotin-qizlarning tadbirkorlik sohasidagi faolligini oshirish nafaqat iqtisodiy, balki ijtimoiy ahamiyatga ham ega. Ayollar tomonidan tashkil etilgan kichik biznes va oilaviy tadbirkorlik subyektlari jamiyatda bandlik darajasini oshirish, kambag'allikni kamaytirish va oilaviy farovonlikni ta'minlashga xizmat qiladi. Shu bois xotin-qizlarning biznes boshlashi va uni rivojlantirishi uchun zarur shart-sharoitlar yaratish, ularga moliyaviy, tashkiliy hamda maslahat yordami ko'rsatish dolzarb masalalardan biri hisoblanadi.

O'zbekistonda ham so'nggi yillarda xotin-qizlarning jamiyatdagi o'рни va rolini oshirish, ularning iqtisodiy faolligini kuchaytirish hamda tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirishga qaratilgan keng ko'lamli islohotlar amalga oshirilmoqda. Davlat tomonidan xotin-qizlarni qo'llab-quvvatlash, ularning biznes g'oyalarini amalga oshirish uchun qulay sharoitlar yaratish, imtiyozli kreditlar, subsidiyalar va grantlar ajratish bo'yicha turli dasturlar ishlab chiqilgan. Ushbu mexanizmlar xotin-qizlarning tadbirkorlik faoliyatini boshlash va rivojlantirishiga katta imkoniyat yaratib bermoqda.

Xususan, xotin-qizlar tadbirkorligini rivojlantirish maqsadida davlat tomonidan moliyaviy qo'llab-quvvatlash mexanizmlarining joriy etilishi ularning biznes faoliyatini kengaytirishga, yangi ish o'rinlari yaratishga hamda mamlakat iqtisodiyotining barqaror rivojlanishiga xizmat qilmoqda. Bunday moliyaviy yordamlar ayollarga o'z biznesini boshlash, ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish sohalarida faoliyat yuritish imkonini bermoqda.

Shu sababli xotin-qizlar tadbirkorligini rivojlantirishda moliyaviy qo'llab-quvvatlash mexanizmlarining ahamiyatini o'rganish, ularning iqtisodiy samaradorligini tahlil qilish hamda bu sohadagi mavjud imkoniyatlarni kengaytirish muhim ilmiy va amaliy ahamiyatga ega hisoblanadi. Mazkur maqolada O'zbekistonda xotin-qizlar tadbirkorligini rivojlantirishda moliyaviy qo'llab-quvvatlash mexanizmlarining roli, ularning iqtisodiy va ijtimoiy ahamiyati hamda ushbu sohadagi asosiy yo'nalishlar tahlil qilinadi. Xotin-qizlar tadbirkorligi mamlakat iqtisodiyotining barqaror rivojlanishida muhim o'rin tutadi. Shuningdek, ularning tadbirkorligini qo'llab-quvvatlash uchun ko'plab farmon va qonunlar joriy qilinmoqda. Jumladan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 14-martdagi PQ-103-son qarori orqali xotin-qizlarda yanada ko'proq imkoniyatlar yaratild

“Oila va xotin-qizlarni qo‘llab-quvvatlash tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” qonunining qisqacha tasnifi: mazkur qaror xotin-qizlarni har tomonlama qo‘llab-quvvatlash, ularning iqtisodiy faolligini oshirish va ijtimoiy himoyasini kuchaytirishga qaratilgan.

2025-yilda asosiy maqsadli ko‘rsatkichlar sifatida 2 million nafar xotin-qizni ish bilan ta‘minlash, 250 ming nafarini kasb-hunar va tadbirkorlikka o‘qitish, 250 ming nafar xotin-qizni oliy ta‘lim bilan qamrab olish hamda 50 ming nafar ehtiyojmand ayolni sanatoriylarda sog‘lomlashtirish vazifalari belgilangan.

Qarorga ko‘ra, ayollar tadbirkorligini rivojlantirish uchun “HAMROH” dasturi joriy etiladi. Unga muvofiq, tadbirkor ayollarga “yashil” va IT loyihalarni amalga oshirish uchun 50 million so‘mgacha grantlar, ijobiy kredit tarixiga ega ayollarga 100 million so‘mgacha garovsiz kreditlar beriladi. Shuningdek, kredit asosida olinadigan uskunalar yetkazib berilgunga qadar kafillik mexanizmi yo‘lga qo‘yiladi.

2025-yil 1-iyulga qadar “Tadbirkor ayollar” platformasi ishga tushiriladi. Bu platforma ayol tadbirkorlarga xomashyo topish, mahsulotlarini sotish bozorini kengaytirish, mutaxassislar jalb qilish hamda biznes jarayonida yuzaga keladigan muammolarni hal etishda yordam beradi.

Shuningdek, “Hamkor tadbirkor” dasturi orqali xotin-qizlarni tadbirkorlik ko‘nikmalariga o‘qitish, ularni kooperatsiya asosida biznesga jalb qilish va mahsulotlarini elektron platformalarda sotishga ko‘maklashish rejalashtirilgan. Qarorda ayollar tadbirkorligini rivojlantirishning “Biznesga ilk qadam”, “Biznesni yo‘lga qo‘yish”, “Biznesni kengaytirish” va “Biznesni yuksaltirish” bosqichlaridan iborat yagona tizimi joriy etilishi ham belgilangan. Bu tizim orqali ayollarni biznesga jalb qilish, mavjud korxonalarni rivojlantirish va eng faol tadbirkor ayollarning yillik aylanmasini oshirish maqsad qilingan.

Xotin-qizlar tadbirkorligi mamlakat iqtisodiyotining rivojlanishida muhim o‘rin egallaydi. Ayollarning tadbirkorlik faoliyatiga keng jalb etilishi iqtisodiy o‘sishni ta‘minlash, yangi ish o‘rinlarini yaratish hamda aholi daromadlarini oshirishga xizmat qiladi. Ayniqsa, kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sohasida ayollarning faolligi iqtisodiy barqarorlikni mustahkamlashda muhim omillardan biri hisoblanadi.

Xotin-qizlar tomonidan tashkil etilgan tadbirkorlik subyektlari ko‘pincha savdo, xizmat ko‘rsatish, hunarmandchilik, qishloq xo‘jaligi hamda ishlab chiqarish sohalarida faoliyat yuritadi. Ushbu sohalarida ayollar biznesining rivojlanishi mahalliy bozorlarni rivojlantirish, yangi mahsulot va xizmatlar yaratish hamda iqtisodiy faoliyatni kengaytirishga yordam beradi. Natijada mamlakat iqtisodiyotida raqobat muhiti shakllanadi va iqtisodiy samaradorlik oshadi.

Shuningdek, xotin-qizlar tadbirkorligining rivojlanishi ijtimoiy jihatdan ham katta ahamiyatga ega. Ayollar tomonidan tashkil etilgan bizneslar ko‘pincha oila a‘zolari va mahalliy aholining bandligini ta‘minlaydi. Bu esa ishsizlik darajasining kamayishiga, aholi daromadlarining ortishiga hamda jamiyatda ijtimoiy barqarorlikning mustahkamlanishiga olib keladi. Bundan tashqari, xotin-qizlarning tadbirkorlik faoliyati ularning iqtisodiy mustaqilligini oshirishga, jamiyatdagi o‘rni va faolligini kuchaytirishga xizmat qiladi. Ayollar iqtisodiy jarayonlarda faol ishtirok etishi natijasida mamlakatning iqtisodiy salohiyati yanada ortadi. Shu sababli xotin-qizlar tadbirkorligini rivojlantirish va ularni har tomonlama qo‘llab-quvvatlash iqtisodiy siyosatning muhim yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi. Hozirgi kunda ayollar tadbirkorligi O‘zbekistonda tobora rivojlanib bormoqda. Davlat tomonidan xotin-qizlarni qo‘llab-quvvatlash, ularga biznes boshlash uchun imtiyozli kreditlar, grantlar va subsidiyalar ajratilishi natijasida ko‘plab ayollar tadbirkorlik faoliyati bilan shug‘ullanishni boshlamoqda.

Bugungi kunda ayollar asosan savdo, xizmat ko‘rsatish, hunarmandchilik, tikuvchilik hamda qishloq xo‘jaligi sohalarida faoliyat yuritmoqda. Bu esa yangi ish o‘rinlari yaratilishiga va aholi daromadlarining oshishiga yordam bermoqda. Shu bilan birga, ayrim ayollar uchun moliyaviy resurslar yetishmasligi yoki tadbirkorlik tajribasining kamligi kabi muammolar ham mavjud. Shunga qaramay, davlat tomonidan yaratilayotgan imkoniyatlar tufayli ayollar tadbirkorligi yil sayin rivojlanib bormoqda. Buni quyidagi javdalda ko‘rishingiz mumkin:

Ko‘rsatkichlar\Yillar	2022	2023	2024	2025	2026
Ayol rahbarlar boshqaruvidagi korxonalar (ta)	39104	41262	42700	43860	46000
Tadbirkorlik bilan xotin-qizlar (mln nafar)	0.9	1.5	1.9	2.1	2.5
Ajratilgan imtiyozli kreditlar (trln so‘m)	8.2	11.5	14.0	16.1	25.0
Xizmat ko‘rsatishdagi ayollar ulushi %	35%	37%	39%	40%	42%

O‘zbekistonda xotin-qizlar tadbirkorligi so‘nggi yillarda sezilarli rivojlanmoqda. 2026-yilga kelib ayol tadbirkorlar soni 2,5 million nafarga yetishi kutilmoqda, bu esa iqtisodiy faol ayollarning qariyb chorak qismini tashkil etadi. Shu bilan birga, moliyaviy qo‘llab-quvvatlash hajmi ham keskin oshib, 2022-yildagi 8,2 trillion so‘mdan 2026-yilda 25 trillion so‘mga yetadi. Ajratilayotgan mablag‘lar nafaqat kichik biznes, balki ishlab chiqarish va eksportga yo‘naltirilgan yirik loyihalarni ham qamrab olmoqda. Ayollar faoliyati an‘anaviy sohalaridan kengayib, IT, ta‘lim va turizm kabi zamonaviy yo‘nalishlarga o‘tmoqda, natijada ularning YAIMdagi ulushi 12 foizdan 20 foizga oshmoqda.

O‘zbekistonda xotin-qizlar tadbirkorligini rivojlantirishga qaratilgan moliyaviy mablag‘lar asosan davlat va tijorat banklari orqali taqdim etiladi. Shu jumladan, Mikrokreditbank, Agrobank, Xalq banki hamda SQB, Ipak Yo‘li Bank va Hamkorbank kabi banklar imtiyozli kreditlar, subsidiyalar va grantlar taqdim etadi. Ushbu banklar orqali xotin-qizlar imtiyozli kreditlar, subsidiyalar va grantlar olish imkoniga ega bo‘ladi. Kreditlar odatda past foiz stavkasi bilan, uzoq muddatli va ayrim hollarda “grace period” bilan beriladi, bu esa ayollarga biznesini boshlash yoki rivojlantirishda qulay sharoit yaratadi.

Xotin-qizlar tadbirkorligini moliyaviy qo‘llab-quvvatlash asosan davlat va tijorat banklari orqali amalga oshiriladi. Jumladan, Mikrokreditbank, Agrobank, Xalq banki hamda SQB, Ipak Yo‘li Bank va Hamkorbank kabi banklar imtiyozli kreditlar, subsidiyalar va grantlar taqdim etadi. Kreditlar odatda past foizli, uzoq muddatli va qulay shartlarda beriladi.

Davlat tomonidan joriy etilgan maxsus dasturlar, masalan, “Hamroh” dasturi, xotin-qizlarning biznes loyihalarini qo‘llab-quvvatlashga qaratilgan bo‘lib, ularga katta miqdordagi kreditlar ajratish imkonini beradi. Shu bilan birga, Prezident farmonlari asosida xotin-qizlar uchun ajratiladigan kreditlar imtiyozli foiz stavkasi bilan taqdim etiladi, bu esa ayollarning tadbirkorlik faoliyatini kengaytirish va iqtisodiy faolligini oshirishga xizmat qiladi.

Umuman olganda, xotin-qizlar tadbirkorligi uchun ajratiladigan mablag‘lar banklar orqali samarali boshqariladi va ular ayollarga o‘z biznesini boshlash, rivojlantirish hamda yangi ish o‘rinlari yaratishda muhim imkoniyat yaratadi. Xususan, “Hamroh” ayollar tadbirkorligini qo‘llab quvvatlash dasturi doirasida ajratiladigan kreditlar foiz stavkasi Markaziy bankning asosiy stavkasidan 10 foiz punktga yuqori bo‘lmaydi deb belgilangan. Bu shuni anglatadiki, agar Markaziy bankning asosiy stavkasi masalan 14 % bo‘lsa, xotin qizlar uchun kreditlarda foiz maksimal 24 % gacha bo‘lishi mumkin.

Davlat tomonidan qo‘llab quvvatlanadigan boshqa kredit resurslarida ham turli shartlar mavjud. Masalan, Prezident qarorlari asosida xotin qizlarning tadbirkorligini yo‘lga qo‘yish va rivojlantirish uchun ajratiladigan imtiyozli kreditlar odatda yillik 14 % stavka bilan berilishi ko‘zda tutilgan. Bu shartlar tiklanish va taraqqiyot jamg‘armasi mablag‘laridan 5 yil muddatga ko‘rsatiladi. Bundan tashqari, ayrim tijorat banklar orqali beriladigan «ayol tadbirkorlar» bo‘yicha imtiyozli kreditlarda ham foiz stavkasi 17.5 % yillik darajaga belgilangan. Bu shartlar, masalan, jismoniy shaxs sifatida biznes faoliyatini yuritayotgan xotin qizlar uchun 33 million so‘mgacha miqdorda kredit qismlarida tatbiq etiladi. Xotin-qizlar tadbirkorligini moliyaviy qo‘llab-quvvatlash nafaqat iqtisodiy, balki ijtimoiy jihatdan ham sezilarli natijalar beradi.

Mazkur qo‘llab-quvvatlash natijasida iqtisodiy va ijtimoiy samaralar kuzatilmoqda. Yangi ish o‘rinlari yaratilmoqda, ishlab chiqarish hajmi oshmoqda va kichik biznes rivojlanmoqda. Shu bilan

birga, ayollar iqtisodiy mustaqillikka erishib, oilaviy daromadni oshirmoqda hamda jamiyatdagi nufuzi va faolligi kuchaymoqda. Bu esa ishsizlik va kambag‘allik darajasining kamayishiga xizmat qiladi.

Hozirgi kunda xotin-qizlar tadbirkorligi kengayib borayotgan bo‘lsa-da, moliyaviy resurslar yetishmasligi, biznes tajribasining cheklanganligi va axborot yetishmovchiligi kabi muammolar mavjud. Ularni bartaraf etish uchun moliyaviy qo‘llab-quvvatlashni kengaytirish, ayollar uchun treninglar va axborot tizimlarini rivojlantirish muhimdir.

Shu tariqa, xotin-qizlar tadbirkorligini qo‘llab-quvvatlash nafaqat iqtisodiy o‘sishga hissa qo‘shadi, balki jamiyatda ijtimoiy barqarorlikni ta‘minlash va mamlakatning uzoq muddatli rivojlanish strategiyasida muhim rol o‘ynaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 14-martdagi PQ-103-son qarori – Xotin-qizlarda tadbirkorlik va iqtisodiy imkoniyatlarni kengaytirish chora-tadbirlari.
2. Frank.uz — Agrobank va Xalq banki tomonidan xotin qizlarga eng ko‘p kredit ajratilishi bo‘yicha maqola.
3. JCH.kun.uz — O‘zbekistonda kichik va o‘rta biznesni qo‘llab quvvatlash tizimi haqida yangiliklar.
4. Meliboyeva.M 2025 Ayollar tadbirkorligini rivojlanishning ijtimoiy-iqtisodiy ahamiyati 17-21
5. Mikrokreditbank rasmiy veb-sayti — ayollar tadbirkorligi uchun kreditlar shartlari bo‘yicha ma‘lumotlar.
6. Normativ hujjatlar portali — norma.uz maydonchasida e‘lon qilingan tadbirkorlik va kredit siyosati bo‘yicha materiallar.
7. Stat.uz: Statistika agentligining rasmiy veb-portali
8. Tahlil markazlari va bloglar — ayollar tadbirkorligi va ijtimoiy iqtisodiyot bo‘yicha umumiy tahliliy materiallar.
9. UzDaily.uz — O‘zbekiston ayollar tadbirkorligini qo‘llab quvvatlash chora tadbirlari tahlili bo‘yicha sharhlar.
10. Xalq banki rasmiy sayti — “Hamroh” dasturi va tadbirkorlikni moliyalashtirish bo‘yicha ma‘lumotlar